



**OLQISH, DUO VA QARG'ISHLAR TIPIDAGI TURG'UN
BIRIKMALAR**

Kabulova Umida Sayidmaxamadovna, ADCHTI,
Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası professori
Kabulova Umida Sayidmakhamedovna, ADCHTI,
professor of the Department of General and
Comparative Linguistics Email: umidakabulova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada soʻzning sehr-jodu qudratidan qoʻrqish hamma vaqt soʻzga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlish folklor janrlari tarkibida bir-biriga mohiyatan tamomila qarama-qarshi boʻlgan janrlarning vujudga kelishiga sabab boʻlganligi, olqish va qargʻishlar ana shunday bir-biriga zid janrlar ekanligi hamda duo shakllarining barchasi istisnosiz ravishda ezgu niyatlar, maʼnaviy va moddiy manfaatlar hamda yaxshilik soʻrash ustiga qurilganligi haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit soʻzlar: madaniy birliklar, til xususiyatlari, turgʻun birikmalar, frazeologizmlar, leksik-semantik tahlil, buyruq mayli.

Аннотация: В данной статье рассматривается идея о том, что страх перед магической силой слов и постоянная осторожность в отношении слов привели к появлению в фольклоре совершенно противоположных друг другу жанров, что хвала и проклятия являются такими противоречивыми жанрами, и что все формы молитвы основаны на добрых намерениях, духовных и материальных благах и просьбах о добре.

Ключевые слова: культурные единицы, языковые особенности, устойчивые сочетания, фразеологизмы, лексико-семантический анализ, повелительное наклонение.

Abstract: This article explores the idea that fear of the magical power of words and a constant caution with words led to the emergence of completely opposite genres in folklore, that praise and curses are such contradictory genres, and that all forms of prayer are based on good intentions, spiritual and material benefits, and requests for good.

Keywords: cultural units, linguistic features, set expressions, phraseological units, lexical-semantic analysis, imperative mood.

Keyingi yillarda maqol, frazeologizmlar bilan bir qatorda tilak va olqishlar (olqish-qarg'ishlar)ning til xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar va tadqiqotlar yuzaga keldi. Bular madaniy birliklar sifatida folklorshunoslar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Xususan doston, ertak, to'y-marosim nomlari, to'y qo'shiqlarining til xususiyatlari, o'zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik tahliliga doir tadqiqotlar yuzaga keldi¹.

M.Umarovning ta'kidlashicha, olqish ham, duo ham kishilarga nisbatan ijobiy munosabatni, yaxshiliklar tilashni o'zida mujassamlashtiradi. Olqish orqali ham, duo orqali ham insonning bir-biriga nisbatan iliq ijobiy munosabati yaqqol seziladi².

Folklorshunos olimlar K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov va O.Safarovlarning e'tirof etishlaricha, "olqish" atamasining ildizi qadimgi oltoy turklari tilidagi "al-" (ulug'lamoq, maqtash, yuksaltirish) fe'liga borib taqaladi. Ushbu termin "al-" o'zagiga buyruq maylidagi "-qy" va harakat nomi yasovchi "-a(sh)" morfemalarining qo'shilishi natijasida shakllangan. Mazkur tushuncha turkiy tilli xalqlar folklorida keng tarqalgan bo'lib, uning izlarini maqollar tarkibida ham ko'rish mumkin. Masalan, "Oq degani – olqish, qora degani – qarg'ish" kabi xalq hikmatlari bu janrning qadimiyligidan dalolat beradi. Shuningdek, xalq orasida "olqish" so'zi "yaxshi tilak" yoki "ijobiy niyat" ma'nolarida, ba'zan esa magik kuchga ega "duo-aytimlar" sifatida ham qo'llaniladi³.

Tilning sheva xususiyatlariga ko'ra, olqishlar ko'pincha "fotiha" sifatida nomlanadi, bu esa o'z-o'zidan ushbu folklor janrining tabiatini islomiy aqidalar bilan shartlangan hodisa sifatida talqin qilinishiga olib keladi. Bunday qarash natijasida ko'pchilikda olqishning mohiyati sof islomiy ta'limotlarga bog'liq holda shakllangan degan tushuncha paydo bo'lgan⁴.

¹ Арипов М. Туркча тилак ва олқишларнинг лисоний манзарасида ранглар//Шарқ машъали. – №2, 2020. – Б.80// <https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2021/08/SHM-%E2%84%962-2020-Turkologiya-last-last-2.pdf> Мурожаат санаси 2024.12.15

² Умарова М. Ўзбек тилидан урду тилига таржималарда дуо, олқиш ва тилакни ифодаловчи birliklar таржимаси//Марказий ва жанубий осий: маданиятлараро мулоқот чоррахасида/ w www.oriens.uz October 2022. – Б. 217.

³ Олқиш ва қарғишлар. Қаранг: Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 109; Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар. Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 129–130.

⁴ Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар. Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 129

Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov bu o‘rinda yana qarg‘ish va olqishlarni bir-biriga zid janrlar ekanligi haqida quyidagicha fikr bildiradi: “So‘zning sehr-jodu qudratidan qo‘rqish hamma vaqt so‘zga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish folklor janrlari tarkibida bir-biriga mohiyatan tamomila qarama-qarshi bo‘lgan janrlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Olqish va qarg‘ishlar ana shunday bir-biriga zid janrlar sanaladi”⁵. Shu o‘rinda M.Umarova mana shu bir-biriga tamomila zid bo‘lgan ikki janr “tarjimaga bo‘yin egmas”ligi jihatidan o‘zaro yaqin sanalishini e‘tirof etadi⁶.

Tilak va olqishlarni o‘rganishda e‘tibor qaratish kerak bo‘lgan jihatlar mavjud. M.Umarovanning ta’kidlashicha, bu madaniy birliklar ham badiiy adabiyotda ham rasmiy uslubda uchragani bilan og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan turg‘un birliklardir⁷.

M.Niyazovanning e‘tirof etishicha, jahon folklorshunosligida olqishlar insoniyatning ibtidoiy davrlardagi so‘z qudratiga bo‘lgan e‘tiqodi va o‘zaro ijobiy istaklar bildirish istagi natijasida shakllangan. Muallif bu turdagi og‘zaki ijod namunalarini o‘z an‘analariga ega bo‘lgan, ommaviy xarakterdagi mustaqil va o‘ziga xos janr sifatida alohida tasniflaydi⁸.

Olqishlar qaysi xalqqa qarashli bo‘lmasin, avvalo, kishilarga ma’naviy va ruhiy ta’sir ko‘rsatish qudratiga egaligi bilan e‘tiborni tortadi⁹.

M.Aripov e‘tirof etganidek, tabiiyki, bunday mavzuda izlanish olib borish uchun o‘sha xalqning tafakkur tarzini bilish lozim bo‘ladi. Olqish so‘zi qadimgi turkiy tildan o‘zlashgan bo‘lib, maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash kabi ma’nolarni bildiradi. Turkcha tilak va olqishlarda ranglarning ishtiroki va bu ranglarning istilohda kelgan va anglatgan ma’nolarini hamda badiiy obrazini ochib berishga qaratilgan. Aslida bizni o‘rab turgan borliq turli-tuman ranglardan iborat.

⁵ Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фолклори очерклари. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 143.

⁶ Умарова М. Ўзбек тилидан урду тилига таржималарда дуо, олқиш ва тилакни ифодаловчи birlikлар таржимаси//Марказий ва жанубий осий: маданиятлараро мулоқот чорраҳасида/ www.oriens.uz October 2022. – Б.218// https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/27._%D0%B3--T%D0%90-%D0%AC-TT%D0%90. Мурожаат санаси: 2025.12.25.

⁷ Ўзбек халқ мақоллари. Тўплам. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусақулов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 79-90.

⁸ Ниязова М. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишларнинг бадий-эстетик вазибалари типологияси: Филол. фанлари бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – Б. 3//www.buxdu.uz. Мурожаат санаси: 2025.03.22

⁹ Ниязова М. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишларнинг бадий-эстетик вазибалари типологияси: Филол. фанлари бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс....автореф. – Бухоро, 2022. – Б.12 //www.buxdu.uz. Мурожаат санаси: 2025.03.22

Ranglar narsalarni bir-biridan ajratish uchun muhim vositadir. Oq rangning tilaklarda kelgan o‘rni va ma‘nolari, qora rangning ham ijobiy hamda salbiy ma‘nolari, yashil rangning tiriklik va baraka sifatida tilaklarda qo‘llanilganini ko‘rish mumkin bo‘ladi¹⁰.

Har bir olqish namunasi o‘ziga xos nutqiy holat ta‘sirida yuzaga keladi. Bu jarayonda ikkita asosiy jihat muhim o‘rin tutadi: birinchidan, birlikning lingvistik tuzilishi va mazmun qatlami, ikkinchidan, uning muloqot jarayonidagi amaliy vazifasi (pragmatikasi). Shu bois, olqishlarni tadqiq etishda ularning sintaktik qolipi va ijtimoiy qo‘llanilish maqomiga birdek e‘tibor qaratiladi.

Olqishlar tilida milliy-lisoniy belgilar alohida namoyon bo‘lib turadi.

B.H.Bgajnokovning fikricha, “yaxshi tilaklar (olqishlar) barcha xalqlar orasida mavjud va ular marosim formulalari asosida yuzaga kelib, muloqot qilishda psixologik qulaylik yaratishga xizmat qiladi”¹¹.

Tilak va olqish so‘zi asosan turk tilida va madaniyatning eng qadimgi davrlaridan olqish va qarg‘ish so‘zlari bilan yonma-yon yuradi¹². Turk olimi İsmail Gençtürkning e‘tirof etishicha, bugungi kunda, ayniqsa Kichik Osiyoda, olqish va qarg‘ish so‘zlariga qo‘shimcha ravishda tilak va olqish so‘zlari ko‘plab ishlatiladi¹³.

X.Hamidovning fikricha, tilak va duo tushunchalari orasidagi nisbiy farq shundaki, tilakda, ko‘pincha, inson(lar)ga yaxshilik bevosita tilanadi, duoda esa inson(lar)ga yaxshilik, marhamat Yaratgandan so‘raladi”¹⁴, uning tomonidan berilgan ushbu fikrga biz ham qo‘shilgan holda, duolarning asosiy qismi, mazmuni Allohga nisbatan, nimadandir asrash uchun, boshiga og‘ir kulfat tushganida, birovga yaxshi tilak niyat qilish maqsadida yoki shunchaki shukronalik bildirish uchun qilinganligini alohida ta‘kidlaymiz. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida esa Alloh nomi keltiriladi, yoki keltirilmasa-da, yashirin ma‘noda aynan u Zotga

¹⁰ Арипов М. Туркча тилак ва олқишларнинг лисоний манзарасида ранглар//Шарқ машъали. – №2, 2020. – Б. 81// <https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2021/08/SHM-%E2%84%962-2020-Turkologiya-last-last-2.pdf>.
Мурожаат санаси: 2025.05.12

¹¹ Бгажноков Б.Х. Очерки этнографии общения адыгов. – Нальчик: Эльбрус, 1983. –С. 232.

¹² Арипов М. Туркча тилак, олқиш ва дуоларнинг функциялари ва хусусиятлари. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. –№3, 2020 йил//www.sharqjurnali.uz 1.pdf. Мурожаат санаси: 2024.05.24

¹³ Gençtürk, İsmail (1962). Sorgun köyü ilenç ve övmeleri. TFAD, 7 (160), 2906. Мурожаат санаси: 2024.05.24

¹⁴ Xamidov H. Badiiy tarjimada tilak, duo va qarg‘ishlarning berilishi. Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi 2 (ilmiy maqolalar to‘plami). Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent: ToshDShI, 2014. – B. 103-109

qaratilgan murojaat nazarda tutiladi¹⁵. Masalan, Ey Xudo, quruq tuhmatingdan asra, qanday baloga yo‘liqdim, o‘zing saqla! – kabi.

Tadqiqotchi Yu.Imomova diniy mazmundagi matnlarni o‘rganishni bevosita Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom tomonlaridan aytilgan duolar tahlilidan boshlashni taklif etadi¹⁶. Uning fikricha, namoz ibodati yakunida Rasululloh tavsiya qilgan duolarni o‘qish alohida ma’naviy ahamiyatga ega:

- Parvardigorim, bizlarga ushbu hayotda ham, boqiy dunyoda ham ezgulik va xayrlarni ato etgin, bizni do‘zax olovining shiddatli azobidan o‘z panohingda asra.
- Yo Robbim, Sendan to‘g‘ri yo‘l (hidoyat), gunohlardan tiyilish (taqvo), poklik va hech kimga muhtoj bo‘lmaydigan darajadagi boylik (iffat va g‘ino) berishingni o‘tinib so‘rayman.
- Allohim, xatolarimni kechir, menga rahm qil va to‘g‘ri yo‘lga boshla. Tanjonimga salomatlik berib, meni halol ne‘matlaring bilan rizqlantir.
- Bizning qalblarimizni Sening roziligingga olib boradigan amallar va toat-ibodatlar sari yo‘naltirib qo‘y.
- Ey Parvardigorim, toqat qilib bo‘lmas musibatlardan, insonni halokat yoqasiga olib keluvchi mushkulotlardan, taqdirning og‘ir sinovlaridan hamda dushmanlarni shod qiladigan badbaxtlikka duch kelishdan Senga sig‘inaman.
- Iloho, zaiflik va dangasalikdan, qo‘rqoqlik hamda aqlni zaiflashtiruvchi keksalikdan, qabr qiynoqlaridan, shuningdek, tiriklik va o‘lim fitnalaridan faqat Sening panohingdan najot izlayman.

Yu.Imomovaning qarashlari asosida yuritilgan tahlillar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. **Murojaatning yagonaligi:** Tahlil etilgan barcha duo namunalarida xitob va undalma faqat bitta manbaga — Yaratgan Olloh taoloning O‘ziga qaratilgan bo‘lib, mutlaq tavhid va yakkaxudolik tamoyilini aks ettiradi.
2. **Mazmunning xayrliligi:** Duo shakllarining barchasi istisnosiz ravishda ezgu niyatlar, ma’naviy va moddiy manfaatlar hamda yaxshilik so‘rash ustiga qurilgan. Ularda biror salbiy yoki yomonlik tilash unsurlari kuzatilmaydi.

¹⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 3 jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B.177.

¹⁶ Имомова Ю. Инглиз, рус ва ўзбек соҳибларининг дуо қилишларининг лингвистик хусусиятлари// Экономика и социум. – № 6 (97)-2. 2022. – Б. 437// www.iurp.ru. Мурожаат санаси: 2024.05.24

3. **Duo matning kompozitsion qurilishi:** Agar duo matni bir nechta gapdan tashkil topgan murakkab sintaktik butunlik bo'lsa, u ma'lum bir qat'iy ierarxik tartibga bo'ysunadi:

- Iqror qismi: Dastlab bandaning o'z ojizligini, xato va nuqsonlarini e'tirof etishi;
- Hamd qismi: Yaratganning ulug'vorligini, Uning go'zal ism va sifatlarini madh etish;
- Tilak qismi: Yakuniy bosqichda Oллоhdan mag'firat, panoh va kelajakdagi xayrli ishlar uchun madad so'rab yolverish.

N.Mahmudovning ishlarida Xudoning ulug'lanishi, barcha ibodatlarini eshitishi va unga qilingan ibodatning qiymati har narsadan ustun ekanligi xususidagi oksilogik tahlil natijalarini ko'rish mumkin¹⁷.

Taniqli olim M.E.Umarxo'jayev o'z ilmiy ishlarida kommunikatsiyaning o'ziga xos jihatlari yoritadi. Unga ko'ra, insonlar bir-biriga ta'sir ko'rsatish uchun jamoaviy xarakterga ega til vositalaridan foydalanadilar. Bunda har bir muloqot akti muayyan janr shaklidagi matn ko'rinishida namoyon bo'lib, shaxsning ijtimoiy faolligini ta'minlaydigan individual qadamlarni o'z ichiga oladi¹⁸.

Lingvist B.O'rinboev o'zining "O'zbek so'zlashuv nutqi" nomli tadqiqotida sotsio-diskursiv munosabatlar tizimini tahlil qilar ekan, nutqiy janr tushunchasiga o'ziga xos ta'rif beradi. Muallifning fikricha, nutqiy janr — bu jamiyatdagi o'zaro muloqot va ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadigan muhim mahsuldir. U insonlarga turli xil ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkonini beruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Janrlar til vositasida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni mantiqiy anglash va ularni to'g'ri talqin qilishga xizmat qiladi¹⁹.

Tilshunoslik sohasining yirik namoyandasi L.V.Sherba inson hayoti va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratib, yashash tarzi murakkab bo'lgani kabi, uning ajralmas qismi bo'lgan til tizimi ham sodda bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, har bir xalqning nutqiy janrlar tizimi,

¹⁷ Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015. – №3. – B. 3-12.

¹⁸ Умархўжаев М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. –Тошкент, 2016.

¹⁹ Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи. —Тошкент: Фан, 1982. —Б. 64; Закирова Д. Ўзбек ва рус тилларида қарғишларнинг лексик хусусиятлари, 2022 — Б. 99//www.reandpub.uz. Мурожаат санаси: 2024.05.24

xususan, qarg‘ish kabi emotsional-ekspressiv shakllari ham o‘sha millatning o‘ziga xos madaniyati va dunyoqarashini ifodalaydi.

Tilshunoslik fanida nutq turlarini tizimli o‘rganish masalasi bevosita M.M.Baxtin nomi bilan bog‘liq. Olimning mashhur tadqiqoti nafaqat o‘z davri uchun yangilik bo‘ldi, balki zamonaviy rus va jahon tilshunosligida nutqiy muloqotni tahlil qilishning asosiy ilmiy manbasi bo‘lib xizmat qilmoqda²⁰. Bunda olim: “Har bir alohida jumla, albatta, individual hisoblanadi, ammo kommunikatsiyaning har qanday shakli bunday jumalarning barqaror o‘zgarmas tiplarini ishlab chiqadi va biz ularni nutqiy janrlar deb ataymiz”²¹, – deganida nutqiy janrlar konsepsiyasining asoslarini yaratgan edi. Nutqiy janrlardan biri bo‘lgan qarg‘ishlar ham bundan mustasno emas.

Ma‘lumki, tilning milliy-madaniy xususiyatlari, eng avvalo, folklorda: maqol, matal va frazeologizm da aks etadi. Qarg‘ish nutqiy janri ham bundan mustasno emas. Qarg‘ish buyruq-istak maylidagi fe‘l bilan shakllangan gap orqali ifodalanib, unda yovuz tilaklar bildiriladi. Shu jihatdan, qarg‘ishlar o‘ziga xos guruhni tashkil qilib, mavzuiy va shakliy jihatdan turlichadir. Insonlar qarg‘ishlarni ovoz chiqarib talaffuz qilar ekan, albatta, ularning vaziyatga ta’sir qilishiga ishonadi. So‘zlovchining qahri qattiqligi uning emotsional-salbiy tonida, ohangida aks etib har qanday insonning kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek tilida ha, onangni ..., padaringga la‘nat, aka bo‘lmay ket, ha, sendaqa opani... kabi qarindoshlik terminlari qatnashgan qarg‘ishlar mavjud. Masalan: So‘ngra ikki kaftini tuproqqa to‘ldirdi-da, dast qaddini ko‘tardi. – O‘z onangni tanimaysanmi? Tuqqan onangni-ya? Iflos, seni men dunyoga keltirgandim-ku? Endi axlating arib, katta qiz bo‘ldingmi? Onang senga kerak bo‘lmay qoldimi? (Internet materiallari).

Qarg‘ishlarda ishlatiladigan somatik leksika har qanday tilning eng qadimgi qatlamlaridan bo‘lib, tilning universal fondini tashkil qiladi. Fanlar tarixida somatik leksika lingvistika, madaniyatshunoslik, antropologiya, falsafa sohalarida ham o‘rganilgan. Demak, somatik leksika (**soma – lotincha tana** degan ma’noni anglatgan) Somatik leksikaga xos bo‘lgan xususiyatlar biri ko‘chma ma’nolarning alohida murakkab sistemasiga va frazemalar qatlamida produktiv xususiyatga ega ekanligidadir. Somatik leksika inson tanasi qismlari nomlari orqali qarg‘ishlarda ishlatiladi. Ulardan eng ko‘p ishlatiladiganlari ko‘z, qo‘l, bosh, yurak.

²⁰ Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва, 1986. – С. 428-472.

²¹ Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва, 1986. – С. 438.

Demak, qarg‘ishlarda tana qismlarining nomlari ko‘p uchraydi. Fikrimizcha, tana qismlariga yo‘naltirilgan qarg‘ishlar insonning so‘z qudratiga ishonchini bildiradi. Shu taqlidda inson o‘zini, asablarini tinchitadi. Chunki yomon maqsaddagi qarg‘ish dushmanni yo‘q qilish maqsadida aytiladi. Shularni hisobga olganda, qarg‘ishlarda tana qismlarining faol ishlatilishi vaziyatga ta’sir qilish uslubi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holatlarni biz quyidagi jadval asosida ifodalaymiz:

1-jadval

Turg‘un birikma tiplari	Ma‘nosi	Maqsadi	Funksiyasi	Uslubiy xususiyati
Olqish-maqtov	Birovning yaxshi fazilatlari, qilgan ishlari uchun maqtov, e’tirof va rizolik bildirish: Mehnat qilgan badani serquvvat; Ota-onaning duosi jannatning o‘rtasi; Boshing yorug‘ bo‘lsin! Umringdan baraka top!	Rag‘batlantirish, targ‘ib qilish. Yaxshilik fazilatli bo‘lishga undash.	Ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Insonning yaxshi fazilatlarini ko‘rsatadi.	Obro‘, sharaf, barakot, saodat kabi ma’nolarni anglatuvchi so‘zlar keng qo‘llanadi. Ijobiy emotsional bo‘yoq beradi.
Qarg‘ish-la‘nat)	Birovning yomon harakatlariga nafrat, achchiq va unga qarshi	Ogohlantirish, qo‘rqitish, jazolash. Zulm, xato qilishdan to‘xtatish	Jamiyat tomonidan qabul qilinmaydigan xatti-xarakatlarni, behayolik, zo‘ravonlikni	Ziyon, halokat, baxtsizlik, balo-qazo kabi yomon ma’nolarni anglatuvchi so‘zlar ko‘p



	<p>qarshilik bildirish:</p> <p>Qarg'ish tushgan uyga barakot kirmas</p> <p>Yo'q bo'lgur! Etti bukilib o'lgur!</p> <p>Do'zaxga tushgur!</p>		<p>aniq ko'rsatadi va qoralaydi.</p>	<p>uchraydi. Salbiy emotsional bo'yoq beradi.</p>
Duo-iltijo	<p>Xudo yoki yuksak kuchlardan o'zi yoki boshqalar uchun yaxshilik, marhamat, barakot so'rash:</p> <p>Jannat onalar oyog'i ostidadir. Allohim, o'zing yetkaz! Xudo xohlasa... Yo Xudo, rahm ayla! Bizni O'zing hidoyat qil!</p>	<p>Iltijo qilish, sig'inish. Yordam, kuch-quvvat so'rash</p>	<p>Ibodat va tavbaning bir shakli. Odamni kamtar qilib, ul Zotning marhamatiga muhtojligini eslatadi.</p>	<p>Rahm, marhamat, yordam so'rash kabi so'zlar. Iltijo, kamtarlik va ishonch tuyg'ularini ifodalaydi.</p> <p>Xudo saqlasin, yo'ling oson bo'lsin, aldovchi ko'rishmasin!</p>

Quyidagi jadval asosida olqish-qarg'ish va duolarni yanada aniqroq tushunish mumkin:

2-jadval

Olqish, qarg‘ish va duolarning struktur-semantik tavsifi

No	Turg‘un birikmalarga yangicha qarashlar	Semantik mohiyati	Struktur xususiyati	Grammatik shakli
1	Olqish	Ezgulik, minnatdorchilik va muvaffaqiyat tilash	Dinamik, qisqa va poetik (ko‘pincha qofiyali)	Buyruq va istak mayli (3-shaxs): bo‘lsin, ko‘rsin
2	Qarg‘ish	Yovuzlik, falokat va jazo tilash.	Ekspressiv, emotsional va keskin imperativ	Ekspressiv, emotsional va keskin imperativ
3	Duolar	Ilohiy kuchdan madad, najot va panoh so‘rash	Kanonik (an‘anaviy), kirish va xotima qismli	Iltijo va so‘rov shakli: asragin, bergin.

3-jadval

Olqish-qarg‘ish va duolarning turg‘un birikmalik xususiyatlari

No	Turg‘un birikmalarga yangicha qarashlar	Magik yo‘nalish	Vaqt va makon	Leksik asosi
1	Olqish	Akkumulyativ (yaxshilikni yig‘ish/ko‘paytirish)	Kelajakka yo‘naltirilgan ijobiy prognoz	Oq, nur, baraka, uzoq umr kabi so‘zlar
2	Qarg‘ish	Destruktiv (yo‘q qilish/zarar yetkazish)	Tezda sodir bo‘lishi kutiladigan salbiy hukm	Qora, yer, o‘t, gum bo‘lmoq kabi so‘zlar.
3	Duolar	Mediativ (inson va ilohiy kuch aloqasi)	Abadiy va doimiy himoya so‘rash	Olooh, rizq, tavfiq, omin kabi so‘zlar.

Xulosa shuki, olqish yaxshilikka yo‘naltiradi va jamiyatni mo‘tadil qilishga xizmat qiladi. Qarg‘ish – salbiy nafrat, achchiqlanish. U yomonlikka qarshi kurashadi, ogohlantiradi va ijtimoiy jihatdan xavfli xatti-harakatlarni cheklashga urinadi. Duo – ruhiy va ilohiy quvvat. U insonni kamtarlikka o‘rgatadi, umid va tasalli beradi, mo‘‘minu musulmonlar uchun asosiy bir vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Арипов М. Туркча тилак ва олқишларнинг лисоний манзарасида ранглар//Шарк машъали. – №2, 2020. – Б.80
- 2.Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва, 1986. – С. 428-472.
- 3.Ниязова М. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишларнинг бадий-эстетик вазифалари типологияси: Филол. фанлари бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – Б. 3//www.buxdu.uz.
- 4.Олқиш ва қарғишлар. Қаранг: Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., 5.Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 109
- 6.Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар. Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 129–130.
- 7.Умарова М. Ўзбек тилидан урду тилига таржималарда дуо, олқиш ва тилакни ифодаловчи бирликлар таржимаси//Марказий ва жанубий осий: маданиятлараро мулоқот чорраҳасида/ www.oriens.uz October 2022. – Б.218// https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/27._%D0%B3--T%D0%90
- 8.Ўзбек халқ мақоллари. Тўплам. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусақулов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 79-90.
9. Gençtürk, İsmail (1962). Sorgun köyü ilenç ve övmeleri. TFAD, 7 (160), 2906. Мурожаат санаси: 2024.05.24
- 10.Хамидов Н. Badiiy tarjimada tilak, duo va qarg‘ishlarning berilishi. Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi 2 (ilmiy maqolalar to‘plami). Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent: ToshDShI, 2014. – В.103-109.
- 11.О‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 3 jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – В.177.
- 12.Имомова Ю. Инглиз, рус ва ўзбек соҳибларининг дуо қилишларининг лингвистик хусусиятлари// Экономика и социум. –№ 6 (97)-2. 2022. – Б. 437